

«Yangi O‘zbekiston-taraqqiyotning yangi bosqichi»da
ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni o‘qitishga zamonaviy
yondashuvlar va innovatsiyalardan foydalanish

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA’LIMI VAZIRLIGI**

**Buxoro viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy
markazi**

“Yangi O‘zbekiston-taraqqiyotning yangi bosqichi”da
ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni o‘qitishga zamonaviy
yondashuvlar va innovatsiyalardan foydalanish

Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi
materiallari

(2023-yil,6-dekabr)

Tezislar va maqolalar to‘plami

Buxoro-2023

To'plamda "Yangi O'zbekiston-taraqqiyotning yangi bosqichi"da ta'lim sifatini yanada oshirish jarayonida zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalardan foydalanish masalalari tahlil qilingan tezis va maqolalar kiritilgan.Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini yaratishda ta'lim va tarbiyaning roli, yuksak ma'naviy xazina hisoblangan buyuk ajdodlarimiz merosini o'rganish hamda "O'zbekiston-2030"strategiyasida ilgari surilgan,erkin,farovon va qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etishda amalga oshirilishi zarur bo'lgan maqsad va vazifalarni ro'yobga chiqarish haqidagi fikrlar bayon etilgan tezis va maqolalar kiritilgan.

Yuksak bilimli,intellektual rivojlangan yosh avlodni tarbiyalash,ular ongi va qalbiga vatanga muhabbat,yurt taqdiriga dahldorlik his-uyg'ularini singdirish,yosh avlodni Yangi O'zbekiston-taraqqiyotning yangi bosqichi"dagi tub islohotlar jarayonida faol ishtirok etish masalalari tahliliga bag'ishlangan ushbu to'plam soha mutaxassislari,professor-o'qituvchilar,umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari,tadqiqotchi-izlanuvchilar ,magistr va keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi materiallarini tayyorlash bo'yicha mas'ullar:

Tahrir hay'ati raisi: A.K.Safarov, Buxoro viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi direktori.

Mas'ul muharrir: Yu.H.Haydarov, "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasini mudiri ,tarix fanlari nomzodi,dotsent.

Tahrir hay'ati:

Sh.R.Astanov –"O'quv va metodik ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

B.Ya.Axmedov -"Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri,filologiya fanlari nomzodi,dotsent.

R.V.Astanov- "Tabiiy va aniq fanlarni o'qitish metodikasi" kafedrasini mudiri.

U.A.Qosimov- "Pedagogika,psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasini mudiri,psixologiya fanlari nomzodi,dotsent

M.S.Narzieva- "Maktabgacha,boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari" mudiri

M.Q.Oripova- "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasini katta o'qituvchisi

M.I.Abdullayeva- "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasini katta o'qituvchisi

Taqrizchilar: Yu.Sh.Shukrullayev- tarix fanlari nomzodi,dotsent.

B.I.Mustafoev-pedagogika fanlari nomzodi,dotsent.

To'plam BVPYaMO'MM ilmiy-metodik kengashi tomonidan foydalanish uchun tavsiya etilgan. (2023-yil 4-dekabrdagi navbatdan tashqari yig'ilishi bayonnomasi.)

Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish-Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda,desak,ayni haqiqat bo‘ladi.Chunki bugungi O‘zbekiston-kechagi O‘zbekiston emas.Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas.

Shavkat Mirziyoyev,O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti



Abdulqodir Muhiddinov-davlat arbobi va publisist

K.J. Rahmonov,

Buxoro davlat universiteti dotsenti,

tarix fanlari nomzodi

D.K. Jamolova,

Buxoro davlat universiteti talabasi

Аннотация: Mazkur maqolada Buxoro Respublikasi yillarida MIQ raisi, qishloq xo‘jaligi noziri, savdo-sanoat noziri, iqtisodiy kengash raisi kabi lavozimlarda faoliyat yuritgan yirik davlat arbobi Abdulqodir Muhiddinovning 1920-1924 yillarda rasmiy matbuot organlarida chop etilgan bir qator maqolalari yuzasidan fikr-mulohazalar bildiriladi.

Kalit so‘zlar: ijro hokimiyati, inqilobiy qo‘mita, “yosh buxorolik”lar, savdo-sanoat noziri, milliy-hududiy chegaralanish.

Buxoro amirligi ag‘darilgach, tezlik bilan Buxoro Xalq Jumhuriyati hukumatini vujudga keltirishga kirishildi. 1920-yil 14-sentyabrda ijro hokimiyati - Xalq Nozirlar Sho‘rosi va parlament - Butun Buxoro Inqilobiy Qo‘mitasi tuzildi. Ijro etuvchi hukumat Fayzulla Xo‘jayev raisligida 11 kishidan iborat tuzilgan bo‘lsa, parlament rolini bajaruvchi inqilobiy qo‘mita 9 kishi va uning raisi Abduqodir Muhiddinov edi.

Yangi tashkil etilgan BXSHJda muhim davlat lavozimini egallagan A.Muhiddinovning hayoti va faoliyati to‘g‘risida ko‘pgina tadqiqotchilar o‘z fikrlarini bildirganlar. Biz esa mazkur kichik tadqiqotda ushbu shaxsning 1920-1924-yillarda jumhuriyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hayotiga daxldor bo‘lgan, rasmiy matbuot organlarida chop etilgan, bugungi kungacha deyarli tahlil qilinmagan bir qator maqolalariga e‘tiborni qaratamiz.

A.Muhiddinov 1892-yilda Buxoro shahrida yirik savdogar Muhiddin Mansurov xonadonida dunyoga kelgan. Boshlang‘ich ta‘limni Buxoroda olgach, Istanbul madrasida o‘qigan. 1918-1920-yillarda “yosh buxorolik”lar faoliyatida qatnashib,

1920-yil boshlarida “Qutulish” gazetasida muharrirlik qilgan. Buxoro Respublikasi yillarida MIQ raisi (1920-21), qishloq xo‘jaligi noziri, savdo-sanoat noziri (1921-23), iqtisodiy kengash raisi (1923-24) kabi lavozimlarda faoliyat yuritishi bilan birgalikda “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetasida 20 ga yaqin yirik maqolalari bilan ishtirok etgan.

1921-yil 10-mayda chop etilgan “Buxoro axbori” gazetasining 35-sonida “Tilimiz va maorif nazorati” nomli yirik maqolasi chop etilgan. Maqola manti: “Yo‘qolgan tilimiz turkiy (o‘zbek) tili yana tirildi, Buxoro aholisi turkiy (o‘zbek) bo‘lganligidan ularning tili hukumat tili qilib qabul etildi” deb boshlanadi. Muallifning yozishicha, buyuk shoir Navoiydan so‘ng tilimizga e‘tibor berilmaganligi, hatto maktablarda bu tilga oid kitoblar yo‘qligi, borlarining ham kamchiliklari mavjudligi tanqid qilinadi. A.Muhiddinov o‘zbek tilining taraqqiyoti uchun o‘z tavsiyalarini taqdim etadi:

Hukumat tili ilmiy va adabiy til bo‘lsin, bu tilda kitoblar, risolalar, gazetalar uchun maqolalar yozilsin.

Maorif nazorati tilimizni rivoji uchun xizmat qilayotgan shoir va adiblarimizni rag‘batlantirsin.

Hukumat tomonidan tilimizni isloh qilish uchun jamiyat tashkil qilinsin.

Xullas, davlat arbobi sifatida A.Muhiddinovning ushbu masalaga qanday jiddiy e‘tibor qaratganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Abdulqodir Muhiddinov «Ziroat nazoratidan nima kutamiz?» nomli maqolasida (Buxoro axbori, 25-son, 1921 yil 22 fevral) yangi hukumat iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida quyidagi muhim ko‘rsatmalar bergan: “Bu kun ziroat nazoratining eng buyuk vazifasi ziroat mahsulotini mamlakatda ortturmoq uchun yangi choralar, yangi yo‘llar topmoqdur. Bu kun iqtisodiy siyosatimizni tuzatilmog‘i faqat ziroat ishlarining taraqqiyosi bilan bo‘ladur. Chunki mamlakatimizda fabrika va ma‘dan ixtisoslari yo‘qdur. Binobarin, bu mamlakatning butun to‘qlik va ochligi ziroat ishlarining taraqqiy va tanazzuliga bog‘liqdir. Ziroat ishlarining taraqqiyosi uchun zarur bo‘lg‘on ishlar, suvning mamlakatda ma‘qul bir tarzda taqsimidir. Buning uchun ziroat nazoratining

shundoq choralariga qirishmog‘i lozimdurki, har bir yer uchun zaruratdan ortiq suv berilmasun va digar tarafdin suvsiz yerlar ham qolmasun. Suv uchun shiddatli ehtiyojlar bo‘lib turg‘onda bo‘sh suvlar ko‘llarg‘a, yo‘llarg‘a toshmasun. Buning uchun bandlar inshooti, ariqlarning munosib suratda qazdirmoq lozimdur. Yashirin suratda suv berilmasligi lozimdur.

Misol: paxta ekini uchun tuproqning tubanda bir miqdor suv yuborilmasi zarur bo‘lsa, bug‘doy uchun boshqa bir miqdorda suv berilmasi lozimdur. Ziroat nazoratining suv haqidagi faoliyatlari jumlasidan eng muhimi yangi manbalar chiqarmoq hamda Rusiyadan olmoqdur. Eski ahdnomalar bo‘yicha Zarafshon suvining uchdan birini olmoqni bekor qilib tamomila olmoqdur.

Ziroat nazoratining ekin haqida tadbirlari jumlasidan mamlakat azaldan ekadurg‘on yerlarini orttirmoqdur. Yana boshqa soliqlarsiz el yer ekishga kirishsun. Buning uchun ziroat nazoratiga lozimdurki, hamisha yer ahvoli va ziroat yerlarining miqdoridan xabardor bo‘lsin. Ekishdan qolg‘on yerlarning nima uchun ekilmaganligini bilib tursin.

Mana shu masala bilan dehqonchilik ishida yordam masalasi chiqadur. Faqir dehqonlarning ho‘kizlari, otlari, yangi ekin ekishlari uchun urug‘liklari bo‘lmagani sababli ziroatdan qo‘l tortarlar. Shuning uchun dehqonlarga asbobi zaruriylar nazorat tomonidan yordam qilinsun. Buning uchun lozimdurki, har viloyatning, har tumanning, har kentning muhtoj dehqonlari va ular uchun zarur bo‘lg‘on asbobdan ziroat nazorati xabardor bo‘lib, miqdor raqamlarini bilib vaqtinda hozirlik ko‘rsun. Ziroat nazorati ma‘lum miqdorda ot, aroba, ho‘kiz va temir-tersaklar hozir qilsunki, bu narsalarni muhtoj bo‘lg‘on dehqinlarga berib yordam etsun. Xususan, Buxoroning lozim taraqqiysi ziroat orqaligina amalga orqaliginadur”.

Shuningdek, A.Muhtidinovning O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish masalasiga oid Ozod Buxoro gazetasida 2 ta salmoqli maqolasi bosilgan. Mazkur maqolalar tahlil etilar ekan, ularda O‘rta Osiyoning tarixiy bosqichlariga murojaat qilinganligi, mintaqa (Farg‘ona, Xorazm, Buxoro) 50 yillar davomida Rossiya imperiyasi mustamlakasi asoratida bo‘lganligi 7 yildan buyon (1917-24) “inqilob” tufayli xalqqa erkinlik va ozodlik berilganligiga alohida e‘tibor qaratilgan.

A.Muhiddinov O'rta Osiyoda milliy - hududiy chegaralanish masalasiga xalqning azaliy orzu-istagi sifatida qaraganligini guvohi bo'lamiz. Biroq O'rta Osiyo respublikalari ichki va tashqi masalalarda mustaqil bo'lishi, o'z huquqini o'zi belgilashi, iqtisodiy mustaqillikka ega bo'lishi sharti bilan ittifoq tarkibiga kirishi haqida A.Muhiddinov o'zining erkin fikr-mulohazalarini ham ilgari surgan. Aftidan, chegaralanish mahalliy aholi xohish-irodasi bilan tabiiy o'tkazilmoqdi, degan ruhiy holatni yuzaga keltirish vositasi qo'yilgan bo'lsa kerakki, A.Muhiddinovning salmoqli maqolalaridagi g'oyalar mafkura doirasini yorib chiqqan olmagan.

Shu o'rinda A.Muhiddinovning rasmiy matbuot organlarida chop etilgan maqollari ro'yxatini ilk bor bibliografiyasini berishga qaror qilindi. Zeroki, kelgusida tadqiqotchilar tomonidan mazkur shaxsning faoliyati to'liq o'rganilganda amaliy yordam bo'ladi, degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Fuqaro hukumati. Buxoro axbori, 8-son, 1920 yil 21 noyabr.

Va'dalar va ishlar. Buxoro axbori, 10-son, 1920 yil 29 noyabr.

El askari-qizil askar. Buxoro axbori, 23-son, 1921 yil 5 fevral.

Ziroat nazoratidan nimalar kutamiz? Buxoro axbori, 25-son, 1921 yil 22 fevral.

Tilimiz va maorif nazorati. Buxoro axbori 35-son, 1921 yil 10 may.

Ochlikning sabablari. Buxoro axbori, 51-son, 1921yil 5 oktyabr.

Sharqda ozodlik harakati. Buxoro axbori, 65-son, 1922 yil 15 yanvar.

Hukumatning moliyasi nima bilan bo'ladur? Buxoro axbori, 70-son, 1922 yil 11 fevral.

Iqtisodiy ishlarimiz. Buxoro axbori, 71-son, 1922 yil 18 fevral.

Buxoro Sho'rolar Jumhuriyatining byudjeti (4-qurultoydagi ma'ruza). Ozod Buxoro, 3-son, 1923 yil 21 oktyabr.

Buxoroning iqtisodiy ahvoli. Ozod Buxoro, 61-son, 1924 yil 11 mart; 62-son, 15 mart.

Milliy jumhuriyatlar tashkili. Ozod Buxoro, 67-son, 1924 yil 27 mart.

Milliy jumhuriyatlar tashkili va Buxoro turkmanlari. Ozod Buxoro, 80-son, 1924 yil 20 aprel.

**AMIR TEMURNING TARIXIY MEROSI - ILM-FAN
TARAQQIYOTINING MUHIM OMILI**

Mastura Sunnatovna Narziyeva,

**Buxoro viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
"Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari" kafedrası
mudiri**

Annotatsiya: Maqolada Amir Temurning ilm-fan va ma'naviy madaniyatning yuksalishiga qo'shgan hissasi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Amir Temur, ilm-ma'rifat, ma'naviy madaniyat, «Temur tuzuklari», alloma, ajdodlar, Ikkinchi Renessans, Movarounnahr, olimlar.

Vatanimiz va davlatchiligimiz tarixida buyuk sohibqiron Amir Temur alohida o'rinda turadi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga ga yo'llagan Murojaatnomasida «Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak» deb ta'kidlagandi. Bu bejiz aytilmadi, albatta.

Zero, xalqimiz, ayniqsa millatning kelajagi bo'lgan yoshlar buyuk ajdodlar tarixini qanchalar ko'p o'rgansa, ularning hayoti va faoliyatidan ibrat va saboq olib yashasa, qalbida milliy g'urur va iftixor tuyg'ulari jo'sh urib, elu yurtga bo'lgan muhabbati yanada ortadi. Bu ezgu ishlarni amalga oshirishda esa, xalqimiz tarixida o'tgan ko'plab buyuk siymolar qatorida, Sohibqiron Amir Temur merosini o'rganish ham muhim ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy ahamiyatga ega. Amir Temur ulkan va qudratli saltanat barpo etar ekan, ma'naviy madaniyatning yuksalishi, gullab yashnashi, bunyodkorligiga alohida e'tibor berdi.

Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. "O'zligimizni anglab, buyuk tariximizni yoshlarga tushuntirsak, ilm-ma'rifatni rivojlantirsak, hech qachon kam

	kafedra dotsenti, f.f.d (PhD) Ibn Arabiy ilmiy merosida Hakim Termiziy ta'limotining o'rni.	
57	Jahongir Jo'raqulovich Shodiyev O'zMU doktoranti INSON QADRINI OSHIRISH VA UNI TA'MINLASH FALSAFANING ASOSIY YO'NALISHI	274
58	Sayyora Sattorovna To'rayeva Surxandaryo viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi katta o'qituvchi Buyuk ajdodlarimiz merosi-yuksak ma'naviy xazina	282
59	A.Q.Saloxov "Ijtimoiy fanlar" kafedra dotsenti G.Qamariddinova "Ijtimoiy fanlar" kafedra o'qituvchisi YOSH LARDA TOLERANTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA FITRATNING TA'LIM-TARBIYA GA OID QARASHLARI	287
60	K.J. Rahmonov Buxoro davlat universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi D.K. Jamolova Buxoro davlat universiteti talabasi Abdulqodir Muhiddinov-davlat arbobi va publisist	294
61	Mastura Sunnatovna Narziyeva Buxoro viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi "Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari" kafedra mudiri AMIR TEMURNING TARIXIY MEROSI - ILM-FAN TARAQQIYOTINING MUHIM OMILI	298
62	Bozorova Lobar Sharopovna Buxoro viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi "Tillarni o'qitish metodikasi" kafedra o'qituvchisi ALISHER NAVOIYNING "LISON UT-TAYR" ASARI – BUYUK	302